

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON MILLIY MEDIA BIRLASHMASI**



**“ALP ER TO'NGA AVLODLARI – QORAXONIYLAR: TURKIY
DUNYO VA ISLOM OLAMI QORAXONIYLAR DAVRIDA”
xalqaro anjuman ilmiy to'plami**



Toshkent, 16-oktabr, 2025-yil

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ MADANIYATI VA MEROSINI TADQIQ ETISH
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar:
Turkiy dunyo va islom olami
qoraxoniylar davrida**

**mavzusidagi xalqaro anjuman ilmiy
to'plami**

2025-yil 16-oktyabr

TOSHKENT- 2025

Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida
QORAXONIYLAR DAVRI ADABIYOTINING “SHOHNOMA”SI

Shohrux-Mirzo Jo'rayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

E-mail: juraevshohruh30@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XI asrning ulug' turkiyzabon shoiri va mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” nomli dostoni hamda Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si qiyosan o'rganilgan. Har ikkala mumtoz asarning o'xshash va farqli jihatlari xususida bahs yuritilgan. Xususan, ramzlar kitobi hisoblangan “Qutadg'u bilig”ning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg'u bilig”, doston, turkiy adabiyot, Firdavsiy, “Shohnoma”, fors-tojtk adabiyoti, timsol, ramzlar, ramziy obraz, ramziy ifoda.

Annotation. This article compares the epic poem “Kutadgu Bilig” by Yusuf Khos Hajib, a great Turkic poet and thinker of the two century, and the “Shahnameh” by Abulkasim Firdavsi. The similarities and differences between both classic works are discussed. In particular, the unique features of “Kutadgu Bilig”, which is considered a book of symbols, are highlighted.

Keywords: Yusuf Khos Hajib, “Kutadgu bilig”, epic, Turkish literature, Firdausi, “Shahnoma”, Persian-Tajik literature, symbol, symbols, symbolic image, symbolic expression.

Yusuf Xos Hojibning turkiy xalqlar adabiyoti an'analari hamda qardosh xalqlar, xususan, forsiy adabiyot tajribalarini ham ijodiy o'zlashtirgan holda yaratilgan «Qutadg'u bilig» asari nafaqat islomiy turkiy adabiyotni boshlab berdi, balki uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko'tardi.

Shimoliy xitoyliklar «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), Janubiy xitoyliklar «Oyin ul-mamlakat» («Hukmdorlik qonun-qoidalari»), Sharqiy turkistonliklar «Ziynat ul-umaro» («Hukmdorlar ziynati») deb nom bergan va yana bir necha nom bilan mashhur bo'lgan bu asarni eronliklar bejiz «Shohnoma»i turkiy» («Turkiy «Shohnoma») deb atashmagan.

Albatta, Yusuf Xos Hojib “o'z davrining badiiy qomusi” (Natan Mallaev) bo'lgan “Qutadg'u bilig” dostonini yaratishda fors-tojik va jahon adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk shoir va mutafakkir Hakim Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sidan ilhomlangan. Buni uning “Shohnoma” yaratilgan vazn – aruzning mutaqoribi musammani maxfuf yo maqsur bahrida (V- - V - - V - - V - “fa'ulun, fa'ulun, fa'ulun, fa'ul”) bitilgani ham tasdiqlab turibdi.

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

Ta'kidlash joizki, "Qutadg'u bilig" Firdavsiy "Shohnoma"si kabi 60000 baytdan iborat bo'lgan nihoyatda yirik asar emas, balki undan o'n barobar kichik, ya'ni bor-yo'g'i 6520 baytlik o'rta hajmdagi dostonidir. Ammo ana shu ixcham hajmdagi asarda ham Yusuf Xos Hojib o'z falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarini kelajak avlodlarga yetkaza olgan.

Shunisi e'tiborliki, "Qutadg'u bilig" "Shohnoma" dostonlarining syujeti, motivlari va ularda ishtirok etgan qahramonlar va personajlarni takrorlamaydi, aksincha, tom ma'noda original va mustaqil asardir.

Asl diniy sarchashmasi Qur'oni karim va Hadisi sharif bo'lgan "Qutadg'u bilig" ham Firdavsiy "Shohnoma"si singari avval Alloh taolo hamdi, Payg'ambar Muhammad (s.a.v) na'ti, Rasulullohning "to'rt sodiq do'sti" – choryor ("Xulafoi roshidin") vasfi bilan boshlanadi. Biroq farq shundaki, Firdavsiy "Shohnoma"sida Iskandardan boshqa bironta ham qahramon musulmon emas, aksincha, otashparast bo'lgan.

Maqola mavzusidan chetga chiqib ketmaslik uchun ham bu ikki mukammal asarning o'xshash va farqli jihatlarini chuqurroq o'rganishdan tiyilib, "Qutadg'u bilig"dagi ramzlarga e'tiborimizni qaratsak. Zero, milliy mumtoz adabiyotimizning bemisl durdonalarini varaqlarkanmiz, ularning ramziy timsollarga naqadar boyligiga guvoh bo'lamiz. Ramziy obrazlar va ramziy ifodalar nafaqat asarlarning badiiy jihatdan pishiq-puxta va mukammal bo'lishiga, balki ularning o'quvchining ongu shuuriga tez yetib borishi va uzoq vaqt xotirasiga muhrlanib qolishiga ham xizmat qilgan.

Turkiy gulistonning eng dastlabki nihollaridan biri bo'lgan «Qutadg'u bilig» dostoni ham ramziylikning haqiqiy namunasi, desak, aslo mubolag'a emas. To'rt ezgu xosiyat – Adolat, Davlat, Aql va Qanoatning suhbatlari asosiga qurilgan asarning boshlamasidan tortib, to so'nggi misrasigacha "to'rt" so'zi o'ziga xos ramziylik kasb etadi. Buni shoir tomonidan olam manzarasi chizilganda, uning to'rt tomoni tasvirlanishida, olamning to'rt unsur – o't, suv, havo va tuproq yoki issiq, sovuq, ho'l va quruqdan iborat, degan falsafiy qarashning ilgari surilishida, xuddiki tabiatning to'rt fasli kabi, inson umrini ham to'rt faslga bo'lib, ularning muqoyasa qilinishida ham ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, nafaqat ta'lim-tarbiyaviy, pand-nasihati tarzidagi traktat, balki ijtimoiy-siyosiy mazmundagi asar yaratgan Yusuf Bolasog'uniy qo'shinining soni iloji boricha oz bo'lishi, u asosan sara jangchilardan tashkil toptirilishi, sara jangchilar zarur qurol-aslaha bilan to'la-to'kis ta'minlanishi davlat siyosatining diqqat markazida bo'lishi

Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida

haqida fikr yuritirakan, behisob muhorabalarda chiniqqan, ko'plab zafarlar quchgan lashkarboshi uchun to'rt ming askar yetarli bo'lishini ta'kidlaydi.

Yana bir holat e'tiborni tortadi. Shavkatli, zafarli, madadli, haqiqat va din tayanchi Tavg'och Ulug' Bug'ro Qoraxon Abo Ali Hasan Binni Arslonxon Rahmatullohi a'layh madhiyasi ham aynan asarning to'rtinchi bobida bayon etilgan. Nazarimizda, masnaviy janrida yozilgan asar tarkibida vazn va qofiyalash usuliga ko'ra, undan farq qiluvchi 200 dan oshiq to'rtlikning mavjud bo'lishi ham bejiz emas.

Endi yuqoridagi farazlarimizni "Qutadg'u bilig" matniga tayanib isbotlashga harakat qilamiz. An'anaviy tarzda yozilgan dostonning boshlamasida muallif payg'ambarlar madhidan so'ng islom olamida ulardan keyingi pog'onada turgan xalifalar haqida so'z yuritadi. «Qutadg'u bilig»da xalifalar "to'rt toza do'st" deb ataladi. To'rt do'st deganda, Muhammad (s.a.v.)ning islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan eng yaqin do'stlari, dastlabki xalifalar: Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abutolib nazarda tutiladi. Muhammad (s.a.v.)dan so'ng islom dini va davlatchiligi tarixida katta xizmat ko'rsatgan ushbu yo'lovchilar keyinchalik islom xalqlari va ulamolari tomonidan chahoryor – to'rt do'st, deb atalgan edilar.

1. Atiq – Abu Bakr Siddiqning laqabi.

Atiq erdi ašnu qamuyda üzä,
Bayatqa bütügli köñül til tüz-ä.

Avvali hamma(si)dan oldingisi Otiq edi,

Xudoga (to'la) sodiq, ko'ngli va tili to'g'ri edi (QBN, 50; 9a9).

2. Faruq – Umar ibn Hattob.

Basa Faruq erdi kiši ödrümi,
Tili köñli bir teg bođun köđrümi.

So'ng, kishi(lar)ning sarasi Foruq edi,

Tili va ko'ngli birdek, xalqning asili edi (QBN, 53; 9a12).

3. Usman – Usmon ibn Affon. Uning laqabi "Zayn Nurayn" bo'lgan.

Basa erdi Usman owutluy silig,

Kiŝidä ödürmiŝ aqï keñ elig.

Keyingisi Usmon edi, andishali, muloyim(edi),
Kishilar orasida sarasi, saxiy, ochiq qo'l edi (QBN, 54; 9a13).

4. Ali – Ali ibn Abutolib, Muhammad payg'ambarning kuyovi va amakivachchasi.

Ali erdi munda basaqï talu,
Kür ersig yüräklig meñasi tolu.

Bundan boshqa sarasi Ali edi,
Qo'rqmas, botir, yurakli, aqli to'la edi (QBN, 56; 9b2).

“Qutadg'u bilig” dostonining asosiy falsafiy g'oyasi muallifning qahramonlar xarakteri orqali ifodalagan quyidagi to'rtta haqiqatiga asoslanishini e'tiborga olsak, yuqoridagi fikrlarimiz yanada oydinlashadi:

1. Adolatga asoslangan to'g'ri qonun. Uning timsoli – Kuntug'di (“quyosh chiqdi” degan ma'noni anglatadi).

2. Baxt (Saodat). Uning timsoli – adolatli vazir Oyto'ldi (“to'lin oy”).

3. Aql va idrok. Uni vazirning o'g'li O'gdulmish (“oqil”) gavdalantiradi.

4. Toqat va qanoat. Vazirning ukasi O'zg'urmish ifodalaydigan ushbu haqiqatning ortida Kelajak va Oqibat turadi.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg'u bilig”ning mazmuni Yusuf Xos Hojib tasavvuridagi shunday bir badiiy olamni aks ettirganki, uning asosiy qahramonlari to'rt timsol, to'rt ramziy obrazdan iborat bo'lib, bular islom ma'naviyatining bosh timsollari hisoblanadi. Islom mintaqa she'riyatining eng asosiy uslubiy xususiyati esa har bir baytning mustaqil tasviriy-timsoliy bir darajasiga ko'tarilish talabi bo'lib, bu talab mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib tomonidan to'la his qilingan va amalda yaqqol ko'rsatib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov K. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1972.
2. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T. 1976. 664 b.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Hozirgi o'zbek tiliga o'giruvchi Fazliddin Ravshanov). – T.: Akadernashr, 2015. – B. 17. 85.
4. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. So'z boshi muallifi H. Boltaboev. – T.: Mumtozso'z, 2008. – B.3.

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

5. Xolmo'minov J., Hazratqulov J. Forsiy adabiyotning jahon adabiyotidagi o'rni. – T.: Yangi nashr, 2012.
7. Xotamiy Ahmad. "Shohnoma"ning til va adabiyotga ta'siri // Sino, 2011, № 43-44.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘Z.....	3
------------------	---

BIRINCHI KENGASH

QORAXONIYLAR DAVRI TARIXI, DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVI

<i>Doniyorov A.</i> Qoraxoniylar davri tarixshunosligi masalalari.....	5
<i>Boboyorov G’.</i> Qoraxoniylar tarixi bo‘yicha yangi ma‘lumotlar: Dod-bek bitigi, “Nasabnoma”lar.....	16
<i>Ekber Necef.</i> Dunya tarixi a‘isindan Karahanlilar`in onemi.....	29
<i>Ateş Hamza.</i> Hybrid legitimacy and plural governance: the Karahanli state tradition in comparative perspective.....	39
<i>Saidov Sh.</i> Xorazmshoxlar-Anushteginlar va Qoraxoniylar: davlatlararo munosabatlar tarixidan.....	60
<i>Alimova R.</i> Qoraxoniylar va Somoniylar o‘rtasidagi munosabatlar.....	66
<i>Tuba Tombulo‘lu, Djumaniyazova F.</i> Karahanli siyasi dushuncesinde “Kara” kavraminin anlam katmanlari.....	74
<i>Qozoqov T.</i> Sharqiy Qoraxoniylar naymanlar hukmronligi ostida.....	82
<i>Qodirov Z.</i> Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlat boshqaruv tizimi: qiyosiy tahlil.....	93
<i>Zokirov B.</i> Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyoning turkiy qabilalari etnogeografiyasiga doir ba‘zi mulohazalar.....	101
<i>Muminov U.</i> Alp Arslon va Malikshoh davrida Saljuqiylar-Qoraxoniylar aloqalari: raqobat va hamkorlik.....	112
<i>Kuldashev S.</i> The council in the state administration of the Karakhanids (based on dīwān lughāt at-turk).....	123
<i>Boyto‘rayev S., Ravshanova M.</i> Qoraxoniylar davrida siyosiy jarayonlar, ma‘naviy meros va sivilizatsiyaviy o‘zgarishlar.....	128
<i>Hamidova N.</i> Symbols of sovereignty in the Karakhanid and Seljuk empires within the tradition of turkic-islamic statehood.....	135
<i>Bo‘riyev I.</i> Qoraxoniylar sulolasi boshqaruvi chog‘ida qo‘shin.....	145
<i>Rajapov P.</i> XI asr I choragida Movarounnahrda Qoraxoniylar va Saljuqiylar sulolalari manfaatlarining to‘qnashuvi	155

IKKINCHI KENGASH

QORAXONIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

<i>To‘xliyev B.</i> Qoraxoniylar davri ilm-fani Yusuf Xos-Hojib talqinida.....	161
<i>Mashhuraxon Adiljon.</i> Alp Er To‘nga timsoli turkiy xalqlar nomoddiy madaniy merosining manbai sifatida.....	174
<i>Salijanova G.</i> Qoraxoniylar hukmronligi davridagi oliy ta‘lim maskanlarining tarixiy tahlili.....	180
<i>Toshova Sh.</i> Qoraxoniylar hunarmandchiligida tarixiy xotiraning aks etishi.....	195

<i>Xatamova M.</i> Qoraxoniylar sulolasi merosi kimniki?.....	207
<i>Azizov A.</i> O'rta chog'larda Turonda ipak va ipakchilik talqini.....	221
<i>Haydarova D.</i> Umay fenomeni: qoraxoniylar davridagi ona arxetipining semantik o'zgarishi.....	230
<i>Abduqahorov A.</i> Qoraxoniylar davrida ilm-fan va madaniyat.....	239

UCHINCHI KENGASH:

QORAXONIYLAR DAVRIDA TIL VA ADABIYOT

<i>Sodiqov Q.</i> Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamaları.....	245
<i>Rahmonov N.</i> Qadimgi turkiy adabiy manbalari uyg'unligiga oid kuzatuvlar.....	267
<i>Dadaboyev H.</i> Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimining ijtimoiy-siyosiy terminologiyada aks etishi.....	276
<i>Abdushukurov B.</i> "Devonu lug'otit turk" va zamonaviy turkiy tillar..	288
<i>Rustamiy S.</i> «Devonu Lug'otit turk»da «Ishba:» atamasi.....	303
<i>Vaxidov A.</i> Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyoda tasavvuf an'analari va terminlarining shakllanishi va rivoji.....	309
<i>Kasimova S.</i> "Tazkirayi bug'raxon" manbasida qoraxoniylar sulolasi va ideologik axborot: Mullo xoji qo'lyozmasi (№1818/ii).....	321
<i>Ehsanulla Q.</i> Qoraxoniylar davrida o'zbek tilining shakllanishi va uning ijtimoiy konteksti.....	330
<i>Yassaviy G.</i> Qoraxoniylar hukmronligi davrida Ahmad Yassaviy ijodi.....	334
<i>Matquliyeva M.F.</i> Afrosiyob haqidagi syujetlarning tarixiy-madaniy konteksti va ularning o'zbek adabiyoti hamda folkloridagi davomiyligi.....	342
<i>To'laganova Sh.</i> "Devonu Lug'ati-t-turk"dagi ayrim frazeologik birliklarning konseptual tadqiqi.....	349
<i>Jo'rayev M.X.</i> Qoraxoniylar davrida hadis adabiyoti.....	358
<i>Xurramova D.M.</i> Qoraxoniylar davriga oid oqova suv va tozalash tizimini ifoda etuvchi terminlar tadqiqi xususida.....	369
<i>Jo'rayev SH.T.</i> Qoraxoniylar davri adabiyotining "Shohnomas"si.....	376
<i>G'afurov N.S.</i> Qoraxoniylar davri va Ahmad Yassaviy hikmatlari.....	381

TO'RTINCHI KENGASH:

TURKIY ISLOM MADANIYATINING YUZAGA KELISHIDA QORAXONIYLARNING O'RNI

<i>Karahan A.</i> Qoraxoniylar yozuv tili lahja asosi va uning turk-islom dunyosiga ta'siri.....	386
<i>Сафаров Р.</i> Роль Карлуков в развитие науки и культуры ислама в Караханидский период.....	399

To'ychibayev A. Qoraxoniylarni yoritishda fatvo asarlarining ahamiyati: Ahmad ibn Muso Keshshiyning "Majmu' Al Havodis"i misolida.....	417
Ataman K.Y. Karahanlilar devrinde h�k�mdarların ve alimlerin t�rk-islam k�lt�r ve medeniyetinin etkileri.....	427
Nosirjonov F. Qoraxoniylar sulolasi davrida yaratilgan musulmon huquqi manbasida ijtimoiy masalalarning yoritilishi ("Fatovoyi qozixon" asari misolida).....	437
Yilmaz Ethan. The religious landscape of Turan (توران) during the Qarakhanid period.....	446

BESHINCHI KENGASH:

YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

Omonov Q. "Qutadg' u bilig" qoraxoniylar davlatining bosh nizomi sifatida.....	456
Ershahin S. Karahanli h�k�mran sinifin Hz. Muhammed anlayişi: Yusuf Has Hacib �rneđi.....	462
Rahimi F. Kutadgu Bilig'den kisasu'i-enbiya'ya oradan da ferađi s�zl�đ�ne ge�en bur�lar ve yildiz adlari.....	490
Xo'jayeva Sh.B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg' u bilig" asarida dunyo obrazining ramziy-falsafiy talqini.....	507
Ibragimov J.T. "Qutadg' u Bilig" dostonidagi sinestetik metaforalar va ularni tarjimada ifodalanishi.....	514
Tojiyev D.B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg' u Bilig" asari va uning "Turkiy adabiyot durdonalari" dagi o' rni.....	520